



GARRI POTTER ROMANLAR TURKUMIDA QO'LLANILGAN NEOMIFOLOGIK VOSITALAR

Zayniddinova Maftuna Faxriddin qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Fayziyeva M. S

Ilmiy rahbar: PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola J.K. Roulingning "Garri Potter" turkumidagi asarlarida mavjud bo'lgan mifologik va folklor ildizlarni o'rGANADI hamda muallifning turli xalqlarning qadimiy adabiy an'analarini bilan chuqur aloqadorligini yoritadi. Qahramon ismlarining kelib chiqishi va mavzuli unsurlar tahlili orqali Rouling yunon, rim, skandinav, kelt, misr va hind mifologiyasidan olingan motivlarni qanday qilib o'zining fantaziya olamiga uyg'unlashtirganini ko'rsatadi. Germiona Granger va Nagini kabi obrazlar o'z mifologik prototiplariga xos xususiyatlarni mujassam etgani, Merlin va Morgana kabi afsonaviy shaxslar esa sehrli olamni mashhur xalq og'zaki ijodi bilan bog'lab turishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Roulingning qadimiy miflar va zamonaviy hikoyachilikni uyg'unlashtirish uslubi nafaqat personajlarning chuqurligi va ta'sirchanligini oshiradi, balki klassik adabiyot bilan zamonaviy fantastika o'rtasida ko'priq vazifasini ham bajaradi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tahlil mifning doimiy dolzarbligini va u Rouling asarining syujet va timsollar tizimini shakllantirishdagi asosiy rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: mifologiya, folklor, Garri Potter, qahramon, neomifologizm.

Ingliz fantastik adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri bu, shubhasiz, Joan Ketlin Roulingdir. U faqat kitob yozish orqali milliard dollarlik boylikka erishgan yagona yozuvchi sifatida tanilgan. Uning asarlari betakror ijodiylik va o'ziga xos ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, Rouling asarlarida turli xalqlar afsonaviy va mifologik hikoyalaridan ilhomlangan ko'plab elementlar mavjud. Bu esa, fantastika janrining ajralmas xususiyatlaridan biri sifatida, qadimiy adabiyot izlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu maqolaning keyingi bobida ana shu qadimiy adabiyotga oid unsurlar muhokama qilinadi.

Birinchi e'tiborga molik obraz - Garri Potterning eng yaqin do'sti Germiona Jeyn Grenger. Uning ismi Shekspirning klassik "Qish ertagi" ("The Winter's Tale") dramasidagi Sitsiliya qirolichasi Germiona shaxsidan olingan [1. 269–346]. Shekspir esa bu nomni qadimgi yunon mifologiyasidan, Troya jangi afsonasidan oлган. U yerda Germiona -Troya malikasi Yelena va Sparta qiroli Menelayning qizi sifatida tilga olinadi. U "Odisseya"ning asosiy qahramonlaridan emas, ko'proq nikohi va qochib ketgan onasining ortidan jo'natgan kemalari bilan esda qolgan [2. 14]. Roulingning aytishicha, bu nomni Germionaning ota-onasi Shekspirning dramasini tomosha



qilganidan so'ng tanlagan. Muallif bu ismni bosh qahramon afsungar-qizaloqning otasi uchun o'ziga xosligi va klassik ohangi tufayli tanlagan.

Ba'zi belgilar va sahnalar aniq nomlanmasa ham, ular turli afsonalardan ilhomlangan. Quyida ko'rib chiqiladigan qahramonlar - har xil madaniyat va mifologiyalardan olingan namunalar hisoblanadi:

1. Yunon mifologiyasi

Argus Filch - Xogvarts qasrining qorovuli va farroshi. U o'z nomini ko'pko'zli ulkan it - Argus Panoptesdan olgan [3. 783], u Yunon mifologiyasida ma'buda Heraning sodiq va hushyor qo'riqchisi sifatida tanilgan.

Drako Malfoy - "Drako" yunon va lotin tillarida "ajdaho" degan ma'noni anglatadi. Ajdaholar miflarda kuch, hasad va xavf ramzi bo'lib, bu jihatlar Drakoning xarakteriga mos keladi.

Andromeda Tonks (qizlik familiyasi Blek) - U Afina afsonasidagi toshga zanjir bilan bog'lab qo'yilgan, keyin esa Persey tomonidan qutqarilgan malika Andromedadan ilhomlanib yaratilgan [4. 60–69].

Narsissa Malfoy - Drako Malfoyning onasi, badavlat sehrgar oilaning vakili Lusius Malfoyning rafiqasi. Uning ismi o'z go'zalligiga oshufta bo'lgan Narsissdan kelib chiqqan [5. 389–411].

2. Rim mifologiyasi

Minerva Makgonagal - Aylanish va aylantirish fani o'qituvchisi, Griffindor kolleji rahbari va Garri uchun ona o'rnila onalik qilgan obraz. Uning ismi Rim ma'budasi Minervaning (Yunon mifologiyasidagi Afina bilan bir xil) nomidan olingan. U donishmandlik, strategiya va urush ma'budasi bo'lgan. Makgonagal xuddi shunday: aqli, dono va kuchli rahbar.

Remus Lupin - Garri Pottering eng sevimli Yovuz huchlardan himoya fani o'qituvchisi. Uning ismi Rim asoschilari - Romul va Remusga ishora qiladi [6. 13], ular bo'rining emizgan farzandlari deb tasvirlanadi. "Lupin" so'zi lotinchada "bo'ri" degan ma'noga ega bo'lib, uning likantrop (bo'ri odam) holatiga ishora qiladi.

Sirius Blek - Garrining cho'qintirgan otasi. Sirius - tungi osmonning eng yorqin yulduzi sanalib, shuningdek, "It yulduzi" deb ham ataladi. Bu uning qora it shakliga kirish qobiliyatiga ishora qiladi.

Regulus Arkturus Blek - "Regulus" lotin tilida "kichik shoh", "Arkturus" esa osmondag'i yorqin yulduz nomi. Regulus - o'z yulduzi kabi buyuklik, rahbarlik va sharaf ramzi sifatida talqin etiladi.

3. Skandinav (Nordik) mifologiyasi

Fenrir Greybek - Skandinav mifologiyasidagi Ragnarök (qiyomat) voqealarida dunyoni vayron qiladigan yovvoyi bo'ri - Fenrirdan ilhomlangan [7. 148–150]. Greybek ham dahshatli likantrop bo'lib, "Ajal tuhfalari" asarida bosh qahramonlarni tutib oladi va sehgarlik olamini xavf ostiga qo'yadi.



Uch aka-uka ertagi - "The Tale of the Three Brothers" voqeasi Skandinav mifologiyasidagi Ragnarökga o'xshaydi [8. 259], u yerda ham uchta aka-uka turli yo'llar bilan o'lim bilan yuzlashadi.

4. Kelt va Artur afsonalari

Artur afsonalarining asosiy sehrgarları - Merlin va Morgana -bevosita roman qahramonları bo'lmasa-da, kitob davomida tez-tez tilga olinadi. Ular bilan ilk tanishuv bolalar yig'adigan shokolad-qurbaqa kartochkaları orqali bo'ladi [9. 94]. Merlin, xususan, ko'p bor esga olinadi: sehrgarlik jamiyatidagi eng oliy orden u nom bilan atalgan [9. 54]; ismi esa so'kinish yoki hayratlanish tarzida ishlataladi: "Merlin soqoli!" - dedi Amos Diggori, ko'zlari kattalashib, - "Garri Potter!" [9. 1007].

5. Misr va Hind mifologiyasi

Amos Diggori - Sedrik Diggorining mehribon va xushchaqchaq otasi. Ism Amon (Amun) - Misr xudosi nomiga bog'liq bo'lib, u kambag'allar va qiynganganlar homiysi hisoblangan [10. 20]. Amos obrazi ham mehribon, boshqalarga yordam berishga tayyor odam sifatida ko'rsatilgan.

Nagini - Voldemortning ilon do'sti. "Nagini" sanskrit tilida "naga ayol" degan ma'noni anglatadi. Nagalar - hind mifologiyasida yarim ilon-yarim odam bo'lib, inson shaklini ola oladi [11. 423-539]. Voldemortning Naginisi ham ilgari odam (afsungar ayol) bo'lib yashaganligi aytildi [12. 69].

Xulosa qilib aytganda, J.K. Roulingning "Garri Potter" turkumi zamonaviy fantastik adabiyotda mifologiya va xalq og'zaki ijodining kuchli rol o'ynashini yaqqol namoyon etadi. Muallif yunon, rim, skandinav, kelt, misr va hind miflaridan olingan nomlar, ramzlar va mavzularni mohirlik bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga turli madaniyatlar bilan bog'langan chuqur, ko'p qatlamlı sehrli dunyonı taqdim etadi. Bu mifologik murojaatlar nafaqat qahramonlarning xarakterini boyitadi, balki qadimiylilik bilan zamonaviylikni bog'lovchi ko'priksi ham hosil qiladi. Rouling shu tariqa fantastika janrining nafaqat haqiqatdan qochish, balki madaniy uzviylik va adabiy yangilik uchun qudratli vosita ekanini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. William Shakespeare. The Plays and Poems of William Shakespeare in Ten Volumes. Eds. Samuel Johnson and George Steevens. 2nd ed. London, 1778, Vol. I.
2. Homer. Odyssey. Vol. 4.
3. Homer, Iliad Vol.783; Hesiod, Theogony; Apollodorus, 2.1.2.
4. Harold C. Knutson. Andromeda. In Brunel, Pierre (ed.). Companion to Literary Myths, Heroes, and Archetypes. Routledge, New York. 1992. ISBN 978-0-4150-6460-6.
5. Martin S Bergmann. (1984). "The Legend of Narcissus". American Imago. 41 (4).
6. Dio Cassius; Cary Earnest; Herbert Baldwin Foster. Dio's Roman History. Cambridge, MA 1914: Harvard University Press.



7. Russell Poole, Ursula Dronke (Ed.). *The Poetic Edda: Volume II: Mythological Poems*. Oxford University Press 1997.
8. Rudolf Simek. *Dictionary of Northern Mythology*. translated by Angela Hall. D.S. Brewer. 2007.
9. J.K.Rowling. *Harry Potter series full edition*. Bloomsbury, London. 32nd edition.
10. Vincent Arieh Tobin, Donald B. Redfort (ed.). *The Essential Guide to Egyptian Mythology*. Oxford Guides. Berkley Books 2003.
11. Vaman Shivram Apte . *The student's English-Sanskrit dictionary (3rd rev. & enl. ed.)*. Delhi: Motilal Banarsidass.1997.
12. J.K.Rowling. *Fantastic Beasts: The Crimes of Grindelwald - The Original Screenplay*, Pottermore Limited. 2018.